


**2019 yilning yanvar-avgust oylarida
Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**

2019 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4433,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 101,8 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 47,2 % ga, tog'-kon sanoati 12,5 % ga va qayta ishslash sanoatining 4,9 % ga, o'sishi hisoblandi.

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda**



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)
- Qayta ishslash sanoat (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish(sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi)

**2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini
sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi**



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 112,5 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).


Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2481,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 56,0 % ni) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,9 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, elektr jihozlari ishlab chiqarish indeksi 145,5 % ni, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 136,4 % ni, asosiy farmasevtik mahsulotlar indeksi 127,3 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining ulushi 5,4 % ni (2018 yilning yanvar-avgust oylarida - 5,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,9 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 18,9 % (19,1%) va quyi texnologiyali - 69,8 % (69,5 %) tashkil etdi.

**Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**



**Yanvar-avgust oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar-avgustga nisbatan, %
	Sellyuloza, ming kg 90%		
452,8		930,2	205,4
	Un, ming tonna		
23,2		24,4	104,9
	Ho`jalik sovuni tonna		
1051,0		804,5	76,5
	Kalava ip, tonna		
2981,4		2144,9	71,9
	Paxta tolasi. mina tonna		
27,1		17,2	63,3
	Paxta urug'l, ming tonna		
43,0		26,9	59,2
	Kunjara, ming tonna		
29,5		17,2	58,3
	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna		
6,4		3,1	47,8
	Aroq – mig litr 100 % spirit		
643,7		218,5	33,9

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1811,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 95,9 % ga kamayganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 95,9 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 96,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	----------------------------------

Elektroenergiya, mln kVt/s

10242,6		9854,4	96,2
---------	--	--------	------


Issiqlik energiyasi, mln Gkal

169,3		102,2	60,4
-------	--	-------	------



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 132,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,0 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 147,2 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan hajm indekslari shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar 68,2 % ga hamda suvga ishlov berish va taqsimlash xizmatlari 2,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig`ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-avgustda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo`yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

6320,6



9060,7

143,4

Shahar ho`jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig`ish bo`yicha xizmatlar, mln so`mda

1540,4




5669,1

368,0

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1708,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 109,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,5 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 62,7 % dan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida 64,8 % ga oshishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 1,0 % ni (2018 yilning yanvar-avgust oylarida 1,2 %) tashkil etdi


Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 1725,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,9 % ulushini), Sirdaryo tuman 890,2 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,1 % ulushini), Guliston shahri 706,4 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,9 % ulushini), Boyovut 194,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 4,4 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Oqoltin tumani 116,3 mlrd so'm (2,6 %), Xovos tumani 99,5 mlrd so'm (2,2 %), Guliston tumani 64,4 mlrd so'm (1,5 %) hissasiga to'g'ri keladi

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 5320,0 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 92911,6 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 127,3%, Guliston shahrida 114,8 % hamda Sayhunobod tumanida 110,9 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Shirin shahrida 95,9 % va Sardoba tumanida 73,9 % ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2108,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 47,6 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 113,8 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



**Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23